

Said Ahmadning "Qoplon" va Roald Dahl ning "Beware of the Dog" hikoyalarida It zoosemasi berilishi

BuxDU Ingliz Adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Toirova U.S.

Annotasiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek yozuvchilari qalamiga mansub bo'lgan hikoyalarda it zoosemasining berilish usullari tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: it zoosemasi, hikoya, nasr, satira, allegoriya, surat va siyrat.

Аннотация: В данной статье анализируются пути передачи зоосемы собак в рассказах английских и узбекских писателей.

Ключевые слова: зоосема, рассказы, проза, сатира, аллегория, внешность, внутренность

Abstract: This article analyzes the usage of dog zoosemy in the stories of English and Uzbek writers.

Key words: zoosemy, story, prose, satire, allegory, internal and external side of people.

Said Ahmad – nasrnafis va dramaturg, o'zbek adabiyotida kichik nasr – hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko'plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning pishiq va obrazlilik bilan o'quvchilarga g'oyat manzur bo'lgan. Buni adibning mustaqillik davridagi ijodi ham to'liq tasdiqlaydi. Said Ahmad birgina 1999-yilda 15 tacha hikoya va ocherk yaratgan. Bular haqida fikr yuritib adibning o'zi: «Mening o'ylashimcha va ko'plab gazetxonlar fikricha, ushbu hikoyalar so'nggi yillarda yaratilgan eng yaxshi hikoyalar turkumi bo'ldi», — deb yozgan edi. [1] Bu hikoyalarda sobiq Ittifoq davrida bo'lib o'tgan fojiali voqealarning yorqin manzaralari g'oyat ta'sirli va aniq qilib ko'rsatib berilgan.

"Qoplon" hikoyasi ham ayni o'sha davr voqea-hodisalarni o'z ichiga oladigan hikoyalardan biridir. Aynan insonning haqiqiy xislatlarini satirik yo'l orqali tasvirlash albatta ijodkorning iste'dodiga bo'g'liq jarayondir. Endi esa yozuvchining itni tasvirlash parchasiga o'z e'tiborimizni qaratamiz.

Ertasiga Tillayev ishdan qaytib yuvinayotganida Qurbonboy kattakon it yetaklab keldi. U itni ayvonning ustuniga boylab, iljaydi:

— Oti Qoplon, Tillayev aka. Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o'rganib ketadi. Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.

U qo'lini yuvib kelib, yarim soatcha itning ta'rifini qilib o'tirdi.

— *It hamma gapni tushunadi, faqat jonivorning tili yo'q.* [2]

Itning ismi Qoplon bo'lib, u odamlarni qanday ekanligini yaxshi biladigan itlar sirasiga kiruvchi jonivordir. Uning ko'p narsalarga fahmi yetgani va ko'p narsalarni his qila olgani uchun, aynan bu itni tili yo'q deya e'tirof etadi. Itning ziyrakligi, uning gaplarni tezda ilg'ab tushunib anglashi haqidagi xislatlari bayon ham e'tibordan qolmagan. Itning hamma narsaga aqli yetishi, uni idrok etishi bovar qilmas jarayondir. Lekin adib itning aynan shu xususiyat bilan hikoyani boshlashni o'z oldiga maqsad qildi.

— *Ayb o'zimda, yoshligimdan shunaqaman, o'zimga qaramayman, oshna-og'aynilarning ishi bitsin, deyman. Ha, odam bolasidan shu qolar ekan. Bo'lmasa, promkombinatda ham, raypoda ham oshnam bor, yuztagina shifer so'rasam, yo'q dermidi. So'ramayman. Aslo so'ramayman.*

— *Nechta shifer yetmayapti?* — *dedi Tillayev beparvo.*

— *Yo'q, xo'jayin, so'ramang, skladga yuz ellikta shifer yozib bersangiz ham olmayman. Siz bilan shu maqsadda oshna bo'lmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz, uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman.* [3]

Qurbonboy o'zini o'ta kamtar qilib ko'rsatar ekan, ich-ichidan o'zi xohlagan narsalarga ega bo'lishni juda xohlardi. O'zining manfaati yo'lida barcha ishlarni qilib, o'z maqsadiga erishmay qo'ymaydiganlar toifasidandir. Biroq uning asl maqsadi pul va boylik bo'lib, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik, xushomadgo'ylik o'zini doimo mehribon ochiqko'ngil qilib ko'rsatishda ustasi farang edi. Kimdan foyda bo'lsa o'shaning uyining ostonasidan qadami arimas, ayniqsa biror bir lavozim egasi bo'lsa albatta o'z ishini biirib oladigan insondir.

Oradan anchagina vaqt o'tdi. Tillayev hassaga tayanib ko'cha aylangani chiqdi. Bir mahal qarasa ko'chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi. O'sha kuni yangi direktor o'g'lining tug'ilgan kuniga o'tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo'lakda yotgan Qoplon ularni ko'rib, dumini likillatib erkalandi.

— *Bizning it qalay?* — *dedi yangi direktor.*

— *Bu itni taniyman,* — *dedi Tillayev va narirokda yangi direktorning charm to'nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.* [4]

Yuqorida keltirilgan parchada esa yozuvchi Qurbonboyning haqiqiy basharasini satirik yo'l bilan tasvirlab, uning surbetligini andisha-mulohazaga bormay ish tutishi, odamlarga amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlarni ham aytib o'tadi. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik

yo‘llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko‘rsatib yurishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko‘rsatib beradi. Hamda hikoyadi sarlavhani esa bekorga Qoplon deya nomlamagani ham e‘tibordan holi emas. Bunday yaramas va andishasiz insonlar mansabli shaxslarni Qoplon misoli qopadigan ya‘ni to amali ketgunga qadar boshliqlarni xushomadgo‘ylik-u laganbardorlik yo‘li bilan shaxsiy manfaati yo‘lida, barcha maqsadlariga erishadilar. Bu yerda yozuvchi it obrazi insondan ko‘ra yuksak darajada ekanligini ya‘ni it o‘z egasini ko‘rganda uni taniganini, biroq Qurbonboy esa eski boshliqni ko‘rganda o‘zini xuddiki tanimaydigandek tutishini izohlaydi. Yangi boshliq bizning it qanday deb savol berganda Tillayev bu itni taniymay deya Qurbonboyni nazarda tutgan bo‘ladi.

Roald Dahl Angliyaning romannavis, shoir yozuvchisi hamda urush davrida jangchi va uchuvchi bo‘lib tanilgan. Uning “Beware the dog” hikoyasi teran ma‘noga ega bo‘lganligi bilan farq qiladi. Unda yozuvchi urush davrida ro‘y bergan voqealarni batafsil bayon etadi.

Just then the door opened and a nurse came in.

"Hello," she said. "So you've waked up at last."

"Where am I?"

"You're a lucky fellow. You landed in a wood near the beach. You're in Brighton. They brought you in two days ago, and now you're all fixed up. You look fine."

"I've lost a leg," he said. [5]

Bu parchada Piter Uilmson ismli RAF uchuvchisi baxtsiz hodisa tufayli samolyotda halokatga uchrab, bir oyog‘idan ayriladi. Piter Uilyamson Germaniya nazoratidagi Vichi Fransiya ustidan missiyani uchib o‘tayotganda jiddiy jarohat oldi. Ko‘zini ochganida esa o‘zini shifoxonada deb faraz qiladi. Hamshira kirganida esa u “men qayerdaman?” deb so‘raydi. Hamshira uning omadli yigit ekanligini aytib, ayni daqiqada uning Angliyada ekanligiga ishontiradi. Chunki u ingliz uchuvchisi edi.

"Well, well," he said. "So you've decided to wake up at last. How are you feeling?"

"I feel all right."

The doctor took his wrist to feel his pulse.

"By the way," he said, "some of the lads from your squadron were ringing up and asking about you. They wanted to come along and see you, but I said that they'd better wait a day or two. Told them you were all right, and that they could come and see you a little later on. Just lie quiet and

take it easy for a bit. Got something to read?" He glanced at the table with the roses. "No. Well, nurse will look after you. [6]

Doktor uni pulsini tekshirib, ko'rikdan o'tkazdi. Sog'ligi' haqida, o'zini qanday his qilayotgani haqida so'rab, uning do'stlari uning so'g'lig'i haqida so'rab qo'ng'iroq qilganini aytib, ular 2-3 kundan so'ng uni ko'rishga kelishlarini ham uqtiradi. Shu bilan birga doctor biror nima o'qib turishini va unga hamshira domiy ravishda g'amxo'rlik qilishini aytadi. Bundan ko'rinib turibdiki bunday mehribonchilik va g'amxo'rlik ortida nimadir yashiringan. Lekin uchuvchi shu qadar sodda bo'ladiki, ularning aniq maqsad mohiyatlarini tushuna olmaydi. Hamshira va doktorning xushomad qilishlari esa bejiz emas edi.

"Nurse, what were those airplanes?"

"I'm sure I don't know. I didn't hear them. Probably fighters or bombers. I expect they were returning from France. Why, what's the matter?"

"They were JU-88's. I'm sure they were JU-88's. I know the sound of the engines. There were two of them. What were they doing over here?"

There were three words, and slowly he spelled the letters out aloud to himself as he managed to read them. G-A-R-D-E A-U CH-I-E-N. Garde au chien. That is what it said. He looked at the small orchard on the left of the cottage and he looked at the green countryside beyond. "So this is France," he said. "I am in France." [7]

Yuqorida keltirilgan misolda esa albatta uchuvchining shubhasiga sabab bo'ladigan omillar ko'rsatilgan. Ya'ni JU-88's samoloyitining ovozi eshitganida hamshiradn so'raydi. Hamshira esa men uning ovozi eshitmayapman. Balki samolotlar Fransiyadan qaytayotgandeb deb aytib qo'ya qoladi. Uning ko'nglidagi shubhalar kundan-kun oshib, oxir –oqibat harakat qilib, karavotdan tushib, emaklab bo'lsad deraza yoniga keladi. Nogahon ko'zi bir taxtachaga yozilgan yozuvga tushadi. U yozuv harflari fransuz tilida G-A-R-D-E A-U CH-I-E-N. Garde au chien ya'ni "Beware the dog" "It dan ehtiyot bo'ling" deb yozilganini guvohi bo'ladi. Shunda u dushmanlar tomonidan asirga tushganligini ya'ni u Angliyada emas balki Nemislar tomonidan bosib olingan Fransiya yerlarida ekanligini bilib oladi.

The man in the chair said, "Well, let's get this stuff over. I'm afraid you'll have to answer a few questions so that I can fill in this combat report. Let me see now, first of all, what was your squadron?"

The man in the bed did not move. He looked straight at the Wing Commander and he said, "My name is Peter Williamson. My rank is Squadron Leader and my number is nine seven two four five seven. [8]

Dushman ofitseri kelib, undan kerakli ma'lumotlarni olmoqchi bo'ladi. Lekin u faqat Ismi Piter Uilsin, lavozimi Skvadron lider va samolyot raqami esa 972457 ekanligini aytadi xolos. Shu 3ta gapdan tashqari hech narsa aytishni xohlamaydi. Chunki dushmanlar undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanilishlarini bilardi. Chunki ularning 3 ta odamlari ya'ni hamshira, doktor, ofitser "It" niqobiga o'ralgan fashistlar va nemislar edilar. Beware the dog esa aynan shunday insonlardan ehtiyot bo'lishlikni ifodalab kelmoqda.

Demak Said Ahmad va Roald Dahl ham insonlar qiyofasidagi xususiyatlarini It obrazi orqali namoyon qilishni, ulardagi kamchilik va nuqsonlarni It zoosemasi shaklida berishni afzal ko'rishadi. Xuddiki quturgan it hech narsadan tab topmagandek barcha itga o'xshash insonlar ham o'z niyatlari uchun jamiki yer yuzidagi razilliklar va yomonliklar bo'lsa barini ishlatib It qiyofasidagi mahluqga aylanadilar. Yozuvchilar esa mana shunday odamlarni o'z hikoyalarida tasvirlab, itning salbiy tomonlarini odam xarakteriga o'xshatib, ulardan bizni ogoh bo'lishga chorlaydilar. O'zbek yozuvchisining It ortidagi qahramoni surbet, yaxshilikni bilmaydigan, andishasiz, ko'rnamak ikkiyuzlamachi laganbardor inson haqida bo'lsa, Ingliz yozuvchisi esa urush davridagi dushmanning haqiqiy siyratini, ya'ni fashistlarning itdek quturgan zulmlarini turli aldov yo'nlari va xiyalari bilan ishni bitirishlarini tasvirlab beradi. Xullas har ikkala hikoyadagi "It" obrazlari insonlarning yashiringan yovuzliklari namunasiidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydulla Mirzayev "20 asr O'zbek Adabiyoti" Toshkent 2005 yil. "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
2. S. Ahmad "Tanlangan asarlar" III –jild «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent 2000 192-195 bet
3. Roald_Dahl "Beware the dog" Penguin publisher, 2012 september .London
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Roald_Dahl